



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Республика Шахарсозлик экспертизаси

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel. 244-04-85, E-mail: davexpertiza@exat.uz,
devexpertiza@umail.uz www.mc.uz

Holati: Tasdiqlandi

Direktor: INOYATOV MIRABBOS MIRKOMILOVICH

Sana: 16-08-2021 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 18042

Obyekt nomi «Namangan shahar hududidan oqib o'tuvchi "Namangansoy" ning PK45+78 dan PK61+08 gacha bo'lgan qismini obodonlashtirish, G'isht ko'priq suv to'sish inshootini ta'mirlash ob'yekti ishchi loyihasi»

Buyurtmachi - "Namangansuvqurilishinvest" DM

Bosh loyihachi - "Standart sanoat servis" MChJ

Litsenziya AL-001367 -sonli, 2020 yil 23 sentyabrda

Moliyalashtirish manbai - Byudjet mablag'lari

Bosh pudratchi - Tanlov (tender) savdolari orqali aniqlanadi

Qurilish turi Obodonlashtirish, ta'mirlash

Murojaat raqami: № 16976

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi PQ-5084-sonli qarori.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi rayosatining 2021 yil 25 iyundagi 94-sonli bayoni.
- 1.3. Namangan viloyat hokimining 2021 yil 1- maydagi 284-sonli qarori.
- 1.4. Shimoliy Farg'ona magistral kanali boshqarmasining 2021 yil 3 - avgustdagi 01/01-125 sonli texnik sharti.
- 1.5. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2021 yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.
- 1.6. Namangan viloyat qurilish bosh boshqarmasi tomonidan 2021 yil 4 iyulda taqdim etilgan 1714-1714401-23761 sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.
- 1.7. "Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining" 2021 yil 28 iyundagi 35-18/0874 sonli texnik shartlari.
- 1.8. ShFMK boshqarmasi ishchi guruhi tomonidan 2021 yil 29 iyunda tuzilgan nuqson dalolatnomasi.
- 1.9. Loyiha qidiruv ishlarini bajarish uchun 2021 yil 19 iyulda tuzilgan shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

- 2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra «ishchi loyiha» ning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.
- 2.2. "Independent reliable expert" MChJ tomonidan 2021 yil 13 avgustdagi 621/2021-sonli va 622/2021-sonli ekspertiza xulosalari.
- 2.3. Norin - Sirdaryo ITHB qoshidagi ShFMK boshqarmasidan 2021 yil 28 iyuldagi 01-132 sonli xati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Loyixa yechimlari.

Loyihada Namangan shahar xududidan oqib o'tuvchi "Namangansoy"ning PK45+78 dan PK61+08 gacha bo'lgan qismini obodonlashtirish, Gisht ko'priksuv to'sish inshootini ta'mirlash ko'zda tutilgan, jumladan:

- "Namangansoy"ning PK45+78 dan PK61+08 gacha bo'lgan qismida soyning chap va o'ng qirg'oqlarini yaxlit beton qoplama bilan mustahkamlab soyning suv o'tkazish qobiliyatini yaxshilash va 300 m³/sek. gacha sel suvlarini talofatsiz o'tkazishini ta'minlash.

- suv sizishini (fil'tratsiyani) kamaytirib, texnik holatini yaxshilash hamda soyning 1,530 km uzunlikdagi qismida o'ng va chap qirg'oqlarini PK50+38 dan PK55+58 gacha ikki qirg'og'ini va PK56+46dan PK60+20 gacha chap qirg'og'ini ko'kalamzorlashtirish.

- Obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, hamda sug'orish tizimi;

- To'siqlar o'rnatish;

- Mavjud aholi o'tuvchi ko'priklarni ta'mirlash;

- Velosiped va piyodalar yo'llari;

- Yoritish tizimi;

- Sanitariya xonalari.

Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarida quyidagi loyihaviy tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- Joyni qo'l kuchi bilan tayyorlash;

- Daraxt ko'chatlari o'rnini belgilash, qazish va o'tqazish;

- PK 50+38 nuqtasidan PK55+58 nuqtalar orasidan loyihada ajratilgan maydonlarda soyning ikki qirg'og'ida, PK56+46 dan PK60+20 gacha soyning chap qirg'og'ida maysa o'rnini 15 sm tuproq to'shab qo'l kuchi bilan tayyorlash;

- Ko'kalamzorlashtirish maydonlariga 0,5*0,5*0,4 m o'lchamda chukurlar qazib ikki yoshli Qrim kashtani va sosnasi ko'chatlarini kashtan-sosna-kashtan sxemasida ekish.

Gisht ko'priksuv to'sish inshootini ta'mirlash ishlarida ko'priksuv fasadini zamonaviy shaklda yangilash, yoritish tizimlarini yangilab qayta ulash ishlari ko'rsatib o'tilgan.

3.2. Qurilish qiymatini hisoblash.

Qurilish-montaj ishlarining qiymatini hisoblash shartnomaviy joriy narxlarda ShNQ 4.01.16-09 "Qurilish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash bo'yicha qoidalar"ga muvofiq tuzilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Ichki muhandislik tizimlari.

Muhandislik tizimlari bilan jihozlangan: elektr ta'minoti, tashqi suv ta'minoti va kanalizatsiya, va boshqa tizimlar tumanning muhandislik tarmoqlariga texnik shartlarga muvofiq ulanadi (ART kelishuvi).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. 2021 yil 13-avgustdagi "O'zsuvekspertiza" DUK tomonidan taqdim etilgan 219/21 - sonli sohaviy ekspertiza xulosasi.

5.2. Ob'yekt joylashgan hududdagi mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilgan Loyihaning bosh rejasi.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz topshirilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- asosiy qurilish materiallari, quruvchi - ishchilarning ish haqlari, foydalaniladigan mashina va mexanizmlar narxlariga aniqlik qiritildi;

-ishchi chizmalarga va tushintiruv yozuviga o'zgartirishlar kiritildi.

6.3. Ekspertizaga taqdim etilgan loyihaning dastlabki qiymati 18 905 650,579 ming so'm bo'lib 134 876, 090 ming so'mga kamayib natijaga ko'ra tavsiya qilingan qiymat 18 770 774,489 ming so'mni tashkil etdi (QQS va buyurtmachining boshqa xarajatlari bilan), shu jumladan:

uskunalar	- 370 158,707 ming so'm;
qurilish-montaj ishlari	- 15 379 684,186 ming so'm;
qo'shimcha qiymat solig'i	- 2 362 476,434 ming so'm;
buyurtmachining boshqa xarajatlari	- 658 455,163 ming so'm.

Qurilish qiymatining pasayishi qurilish materiallari, foydalaniladigan mashina va mexanizmlar narxlari va boshqalarga aniqlik kiritish hisobidan kelib chiqdi.

6.4. Buyurtmachiga ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish tavsiya etiladi.

6.5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qaroriga muvofiq, 4- ilova, II-bob, 8-bandiga asosan, «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarni hamda hujjatlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi».

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Namangan shaxar xududidan oqib o'tuvchi "Namangansoy"ning PK45+78 dan PK61+08 gacha bo'lgan qismini obodonlashtirish, Gisht ko'prik suv to'sish inshootini ta'mirlash", smeta xujjatlari ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va ShNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'yektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

Ekspert mutaxassislar: O. Abdullayev.

Bosh mutaxassis: MUROTOV BEXZOD JURAKULOVICH